

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024. Ped.05.10 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KOSIMOV AKMALJON NASIRDINOVICH

**SPORT FAOLIYATI ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY
IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kosimov Akmaljon Nasirdinovich

Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish
metodikasi..... 3

Косимов Акмалжон Насирдинович

Методика развития национальной идентичности учащихся через
спортивную деятельность..... 27

Kosimov Akmaljon Nasirdinovich

Methods of developing students national identity through sports
activities..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024. Ped.05.10 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

KOSIMOV AKMALJON NASIRDINOVICH

**SPORT FAOLIYATI ORQALI O‘QUVCHILARDA
MILLIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9255 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich,**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Temirov Nabijon Soliyevich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Komilov Nodirbek Boqijonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot: **Andijon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: info@fdu.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: ((+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil "____" _____ dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.X.Xankeldiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.T.Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d., dotsent

T.A.Egamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida ta'lim jarayonlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar negiziga qurish, bunda sport tarbiyasi va targ'ibotining murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida o'quv faolligi va natijadorligiga ta'siridan samarali foydalanish tendensiyalari mavjud. Sport nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan o'quvchilarni turli zararli yot g'oya va odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyati va iste'dodlarini to'la ro'yobga chiqarish vositasi hamdir. Ayniqsa, sport vositasida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish orqali milliy mansublik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega¹.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari (xususan, CESS (AQSh), ESCAS (Angliya), IFEAK (Fransiya), NCEEER (AQSh)) va xalqaro markazlarida umumiy o'rta ta'limda sport tarbiyasini rivojlantirish, sport o'yinlari vositasida o'quvchilarda jismoniy va ma'naviy-ruhiy sifatlarni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, sport to'garaklarini tashkil etishning interaktiv modellarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda sportga qiziqishni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, sport to'garaklarida mashg'ulotlarni loyihalash va rejalashtirishning texnologik asoslarini modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sport vositasida o'quvchilarda milliy mansublik tuyg'usini, g'urur va iftixor hissini, yurt taqdiriga daxldorlik va ijtimoiy mas'uliyatni anglash tafakkurini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda².

O'zbekistonning yangi taraqqiyoti strategiyasida ham "sportning ommaviylikini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish"ga qaratilgan ta'limiy va tashkiliy islohotlarni jadallashtirish, sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, o'quvchi-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni oshirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish, sport tarbiyasi asosida yoshlarda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, "kichik yoshdan bolalarda sport bilan shug'ullanishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda ularning muayyan ko'rsatkichlari asosida qaysi sport bilan shug'ullanishini aniqlash, mustaqil rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish"³ jismoniy tarbiya va sport tizimining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Bu esa, sport vositasida o'quvchilarni tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish, milliy o'zlikni anglashlariga yo'naltirish, umuman olganda, milliy identiklikni

¹ <https://www.herzen.spb.ru/about/struct-uni/sci-inst/nii-pedagogicheskikh-problem-obrazovaniya/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // lex.uz

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020 y., 07/20/5924/0081-son.

shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, omillari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, nazariy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son Qarori, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori, 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 118-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik, tibbiy va tarbiyaviy asoslari, o'quvchilarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish jarayonini loyihalash masalalari Sh.X.Xankeldiyev, A.A.Abdullayev, K.Mahkamov, Yu.Yu.Aripov, O.R.Jamoldinova, K.M.Mahkamjonov, M.N.Norqobilov, Z.S.Mirxodjayeve, V.V.Mahmudov, X.N.Xakimov, S.S.Xamroyev, F.A.Kerimov, Z.X.Palibayeva, Z.A.Bakiyev, D.D.Safarova, F.X.Muxammedjanova⁴ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

⁴ Xonkeldiyev Sh.X., Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.- Toshkent.: O'zDJTI nashriyot-matbaa. 2005.- B.11; Mahkamov K. Axloq-odob saboqlari. -T.: Fan, 1974. -B.133.; Aripov Yu.Yu. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsdan tashqari jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy tadbirlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari // Academic research in educational sciences. 202 № 1. -B. 305.; Jamoldinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent.: ToshDPU. 2015. -B. 14-15.; Mahkamjonov K.M. Tayyorlov sinflarida jismoniy tarbiya darslari. -Toshkent.: O'qituvchi. 2011. -B.94.; Norqobilov M.N., Mirxodjayeve Z.S., Mahmudov V.V. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar. Monografiya. Toshkent.: TIQXMMI, 2019, - B. 156.; Xakimov X.N. Umumta'lim maktablarida jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyalashuvining pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand.: SamDU. 2020. -B. 12.; Xamroyev S.S. Sport to'garaklari orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand.: SamDU. -B. 12.; F.A.Kerimov, Z.X.Palibayeva, Z.A.Bakiyev, D.D.Safarova, F.X.Muxammedjanova. Valeologiya asoslari - Toshkent.: O'zDJTI nashriyot-matbaa. 2018.- B.18;

Mamlakatimizda milliy identiklik masalalari, milliy o'zlikni anglash, milliy mentalitet va millatlararo munosabatlarni o'rganish masalalari F.M.Abdurahmonov, J.A.Bahromov, N.N.Nazarov, R.N.Rahmonov, Z.I.G'afurov, Q.Z.Xonnazarov, S.Y.Atamurodov, A.I.Achildiyev, A.X.Ashurov, B.B.Qosimov, B.N.Karimov, Sh.B.Qahhorova, Sh.O.Madayeva tadqiqotlarida o'z aksini topdi, mazkur dissertatsiya ishini yoritishda va tarixiy talqinini berishda xizmat qilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan T.M.Borisova, V.V.Ribnikov, I.R.Tarassenko, V.I.Stolyarov, B.A.Ashmarin, V.K.Balsevich, M.Y.Vilenskiy, G.G.Germanov, S.I.Kramskoy, O.V.Masalova, L.T.Matveyev, L.I.Lubisheva⁵ kabilar o'quvchilarni jismoniy tarbiyasini tashkil etish jarayonlarining modernizatsiyalashning innovatsion texnologiyalari, sportga doir madaniyatini shakllantirish masalalarini o'rganishgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida S.N.Abashin, I.Z.Shteynberg, N.S.Lebedeva, G.V.Soldatova, S.N.Ikonnikova, L.G.Ionin, T.G.Stefanenko, N.S.Antonova va boshqa olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida identiklik masalalarining jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va ijtimoiy madaniy meros bo'lib qolishini ta'kidlab, ijtimoiy psixologik nazariy muammo sifatida o'rgananganlar.

Xorijlik olimlardan A.A.Alpers, V.K.Balsevich, L.Volf-Vendel, Y.G.Tatur, V.F.Xutmaxer, B.A.Wold kabilar tadqiqotlaridan maxsus vositalar yordamida inson tanasini chiniqtirish, sport-tarbiya ishlariga rahbarlik qilish, jismoniy kamolotga doir kompetensiyalarni shakllantirish yuzasidan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan.

G'arb olimlaridan R.B.Berns, J.M.Terner, K.X.Xorni, T.S.Kun, E.R.Eriksen, M.B.Mid, R.L.Mills, X.G.Bekker va D.D.Tomson, E.K.Eriksen, A.M.Bandura, F.X.Gruber, P.T.Erny, R.W.Firth, T.S.Fukutake, I.L.Hilger, J.E.Habermas⁶ kabi tadqiqotchilar milliy identiklik masalasini sotsiomadaniy kontekstda o'rganishni tavsiya qilganlar. Biroq sport vositasida o'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirish masalalari nazariy jihatdan asoslanmaganligi va tajriba-sinov orqali samaradorligi maxsus tadqiq etilmaganligi tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti

⁵ Борисова Т.М. Формирование нравственных ценностей у студентов физкультурного вуза (на основе духовной культуры народа) : Дис... канд.пед.наук. - Якутск, 2009; Рыбников В.В. Формирование духовно нравственных ценностей студентов (На занятиях по физической культуре): Дис. ... канд. пед.наук. - Саратов, 2003; Тарасенко И.Р. Формирование социально-духовных ценностей средствами физической культуры в процессе профессиональной подготовки студенческой молодежи: Дис.... канд. пед.наук. – Ставрополь, 2005.; Столярков В.И. Социология физической культуры и спорта: (Основные проблемы, новые подходы и концепции). - М., 1999; Лубышева Л.И. Социология физической культуры и спорта. – М: Академия, 2001.

⁶ Bandura A. Social cognitive theory in cultural context. Applied Psychology: An International Review. 2002. № 151. –P. 269–290.; Benedict R.F. Thai National Character. – New York. 1964.; Gruber F. Anthropology and Education. – Philadelphia. 1961.-R. 125; Dubois C. The People of Alor. Minneapolis. 1944.; Erny P. L'Enfant et son milieu en Afrique Noire. Essai sur L'education traditionnelle. 1972. –R. 89; Firth R. We, The Tikopia. –L.: 1936. R. 67.; Fortes M. Social and Psychological Aspects of Education in Thailand. Afrika. 1930. vol. 11(4) Suppl.; Fukutake T. The Japanese family. – Tokyo, 1981. ; Hilger I. Field Guide to the Ethnological Stadi of the Child Life. – New Haven, 1960.; Habermas J. Stichworte zur Theorie der Sozialisation // Ders. Kultur und Kritik. Frankfurt/M., 1973 /http://cyberleninka.ru.

Farg‘ona davlat universitetining 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimining ilmiy-metodik asoslarini o‘rganish» ilmiy tadqiqotlari yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“milliy identiklik” tushunchasining mazmun-mohiyati, uni o‘quvchilarda rivojlantirishning ergonopedagogik xususiyatlarini tadqiq etish;

sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish;

sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning texnologik tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Farg‘ona, Sidaryo va Andijon viloyatlari umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 514 nafar respondent o‘quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod, vositalari tashkil etdi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, ekspert baholash, savol-javob, suhbat, assesment, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“milliy identiklik” tushunchasining mazmun-mohiyati, konseptual asoslari va ergonopedagogik xususiyatlari tahlillashtirilgan holda, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan o‘quvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishga yo‘naltirish, sport vositasida tayanch ma‘naviy kompetensiyalarni shakllantirishning motivatsion va kognitiv komponentlarining regulyativlik darajalari ishlab chiqilgan;

sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish metodikasining tashkiliy-pedagogik komponentlari tayanch, variativ, mustaqil faoliyat kabi tarkibiy qismlari fasilitatsion va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida maxsus, metapredmetli, sport-sog‘lomlashtiruvchi modulli mashg‘ulotlar jarayonida takomillashtirishning didaktik-adaptiv algoritmi ishlab chiqilgan;

sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning funksional modeli milliy g‘urur tarbiyasi: madaniy muvofiqlik, subektivlik, faoliyat, insonparvarlashtirish, integratsiya, ijodkorlik va muvaffaqiyat kabi tamoyillari hamda o‘quvchi shaxsining milliy identiklik tarbiyasini rivojlantirish uchun aniqlangan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar to‘plamini o‘quv jarayoniga singdirish asosida takomillashtirilgan;

sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishda milliy o‘zlikni anglash, milliy mansublik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantirish, milliy va umummadaniy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga

ustuvorlik berish, sport o'yinlarning didaktik ta'sirini pedagogik jarayonga yo'naltirish, sport tarbiyasi va milliy identiklik tarbiyasini integratsiyalashda sport pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishning metodik tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“milliy identiklik” tushunchasining mazmun-mohiyati, uni o'quvchilarda shakllantirishning ergonopedagogik xususiyatlari ilmiy asoslangan;

sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning metodik asoslari takomillashtirilgan;

“Sport pedagogikasi va mutaxassislikka kirish” nomli o'quv qo'llanma tayyorlangan va nashr ettirilgan (№ 431042);

“Jismoniy tarbiya ta'lim jarayonida pedagogik nazorat” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma nashr ettirilgan va unda o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida bilish nazariyasi, metodologiyasi hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz, chet ellik olimlar, shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdori, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ta'lim muassasalarida sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga doir o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undagi taklif, tavsiyalardan sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sotsiologik so'rovnomalarni o'tkazishda, ommaviy axborot vositalari tizimida, radioeshittirishlar, tahliliy teleko'rsatuvlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish metodikasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

milliy identiklik tarbiyasining ergonopedagogik xususiyatlari orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishga yo'naltirish, sport vositasida milliy o'zlikni anglash, g'urur va fahrlanish asosida milliy mansublikni his etish kabi tayanch ma'naviy kompetentsiyalarni shakllantirishning motivatsion va kognitiv komponentlar bilan regulyativlik darajasini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirilganligiga oid takliflar “Sport pedagogikasi va mutaxassislikka kirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'i). Natijada milliy identiklik dinamikasining istiqboldagi holatini aniqlash imkoniyati kengaytirilgan.

sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish metodikasining tashkiliy-pedagogik komponenti tayanch, variantiv, mustaqil faoliyat kabi tarkibiy qismlarga asoslangan nazariy-metodik bilimlarni maxsus, metapredmetli, sport-sog'lomlashtiruvchi modulli mashg'ulotlar jarayonida tarkib toptirishning didaktik-adaptiv algoritmini ishlab chiqish orqali takomillashtirilganligiga oid takliflar O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan I-OT-2021-302 sonli "Jismoniy tarbiya va sport marketingi" o'quv qo'llanmasining elektron palatformasini yaratish" mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-martdagi 04/11-4179-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sotsiologik tadqiqot natijalari asosida jamiyat taraqqiyotining innovatsiyalashuvi sharoitida milliy identiklik jarayonlarining monitoringini amalga oshirish imkoni kengaytirilgan.

sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning funksional modeli madaniy muvofiqlik, subyektivlik, faoliyat, insonparvarlashtirish, integratsiya, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyillari hamda o'quvchi shaxsining milliy identiklik tarbiyasini rivojlantirish uchun aniqlangan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar to'plami (faollik, maqbullik, kommunikativlik, ijodkorlik, muammolilik) asosida takomillashtirilganligiga oid tavsiyalar "Sport pedagogikasi va mutaxassislikka kirish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'i). Natijada milliy identiklik dinamikasining istiqboldagi holatini aniqlashga qaratilgan "O'zbek xalqining milliy identikligi" nomli sotsiologik tadqiqot dasturi va so'rovnomasi ishlab chiqish uchun xizmat qilgan.

milliy o'zlikni anglash, milliy mansublik, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish, o'zini o'zi rivojlantirish, milliy va umummadaniy tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga sport o'yinlarning didaktik ta'sirini yo'naltirish, pedagogik jarayonni integratsiyalashda sport pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishning metodik tizimi takomillashtirilganligiga oid takliflar O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan I-OT-2021-302 sonli "Jismoniy tarbiya va sport marketingi" o'quv qo'llanmasining elektron palatformasini yaratish" mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-martdagi 04/11-4179-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sport o'yinlari asosida milliy identiklikni shakllantirishning metodik tizimi va texnologik asoslari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro anjumanlarda ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy ko'rinishda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi natijalari bo'yicha jami 24 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Ulardan: 1 ta monografiya, OAK ro'yxatida keltirilgan jurnallarda chop etilgan 12 ta ilmiy maqola, chet el jurnallarida chop etilgan 6 ta ilmiy maqola, ilmiy-amaliy konferentsiyalarda 1 ta ma'ruza va tezislar, shundan 5 tasi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar nashrlarida chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, 7 ta paragrafdan iborat bo‘lgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati, pedagogik-psixologik asoslari tadqiq etilgan. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, oliy ta‘lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

“Tarbiya” so‘zi “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondashgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta‘rif bermoq kerak. Arabcha “tarbiya”, “tarbiyat” so‘zlari 1) parvarish qilmoq; ta‘lim bermoq; o‘rgatish; odob o‘rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko‘rsatish: ko‘zquloq bo‘lish; himoya qilish kabi ko‘p qirrali mazmunga ega. “Tarbiyachi” so‘zi esa shu ko‘p qirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir⁷. Demak, milliy tarbiyaning lug‘aviy ma‘nosini “yosh avlodlarni o‘z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta‘lim bermoq” sifatida aniqlash mumkin.

Milliy identiklik millatga mansublikni his qilish, uning tarixini, urf-odat, an‘ana, qadriyatlarini tizimlashgan holda anglashda namoyon bo‘ladi. Bunday holatda millatning barcha vakillari iqtisodiy ahvolidan va qanday mansabni egallashidan qat‘iy nazar, millat oldida turgan maqsad va manfaatlar umumiylikni anglash asosida birlashadilar. Milliy identiklik tushunchasi mazmun mohiyatini yoritilishi, unga berilgan mualliflik ta‘rifimizda “milliy identiklik – bir millat tarixiy rivojlanish jarayonidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, aksiologik jarayonlarning milliy o‘zlikni anglashda o‘z-o‘ziga aynanlashuvchi tizimi, belgilari, usuli, reprezentativ xususiyatlari” ekanligi urg‘ulanadi. Ta‘rifimiz milliy identiklikning umumiy xususiyatidan kelib chiqib berilgan va aksiologik tizim o‘z-o‘zidan identiklik fenomenining tashkil etuvchi atributlaridir. O‘quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasihatgo‘ylikdan qochish kerak. O‘quvchilarning vatan va el-yurt taraqqiyotida ularning bevosita mas‘ul ekanliklari, tarixda ota-bobolarimiz hayoti yuksak ma‘naviyat egasi ekanligimizga

⁷ Жабборов Х. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 9). –Б. 270-272.

asos bo'lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo'shilgan holda, bo'lajak ma'lum kasb egalari sifatidagi bilimlarini o'rgangan tartibda yondashish kerak bo'ladi. Muammoga oid manbalarni o'rganish, o'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirish jarayoni quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi degan xulosaga kelish imkonini berdi:

1. **Milliy tuyg'u, ruhiyat (milliy psixologiya)** – subyektning obyektga bo'lgan muhim munosabati, mazkur munosabat mazmunida aks etuvchi xususiyat bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar, shaxsning atrof-muhitga ta'sirida namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'uga ega shaxs o'zini millat vakili ekanligini his eta olishi, u kechiradigan turmush tarzi millatdoshlariniki bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

2. **Milliy xarakter** – millat vakillari ruhiyatida aks etuvchi barqaror psixik xususiyatlar birligi bo'lib, u ham ijtimoiy borliqqa munosabatda aks etadi. Millat vakillarining turmush tarzi, ijtimoiy maqsadlari, hayotiy faoliyatlari hamda ruhiy kechinmalarining yaxlitligi milliy xarakterga xos yetakchi psixik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

3. **Milliy g'urur** – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg'u o'z ona zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon tamadduniga qo'shgan hissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, oro'-e'tibori bilan faxrlanish hissiyotidir. Milliy g'urur har bir insonda o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analar, qadriyatlarini, tarixini mukammal bilish va uni o'zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o'z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi. Milliy g'ururga egalik millat vakili sifatida o'zi mansub bo'lgan millat tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida qo'lga kiritilgan yutuqlardan, millatning jahon tamadduniga qo'shgan hissasidan faxrlanishnigina ifodalab qolmay, balki milliy taraqqiyot, millat taqdiri va istiqboli uchun kurashish, bu borada chuqur mas'ullikni his etish hamdir.

4. **Milliy iftixor** – milliy g'urur tuyg'usiga egalikning yuqori bosqichi bo'lib, u millatning “yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir”⁸. Milliy iftixor tuyg'usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o'rnini, jahon tamadduniga qo'shgan munosib hissasini, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini munosib baholay olish, millat istiqboliga bo'lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnodda hayotga, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. Bu jarayondagi umumiy vazifalarga bilim berish, jismonan tarbiyalash va sog'lomlashtirishni kiritish mumkin. Shuningdek, sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning xususiy vazifalari ham mavjud bo'lib, ularga: o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish; turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo'lish uchun shu yoshga xos bo'lgan jismoniy va milliy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish; hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik

⁸ Иброҳимов А. Миллат овози. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 2003. – 29 б.

kerak bo'ladiganlari bilan qurollantirish; o'quvchilarga milliy identiklikka oid yangi bilimlarni berish; o'quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishiga qiziqtirish va unga odatni shakllantirish kabilar kiradi.

Sport ham musiqa san'atidek millat, yurt nomini jahonga tez tanitadi, shuningdek, u fuqarolarning faxr, iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni o'zbek sportining buguni va istiqboli bilan tanishtirish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

O'quvchilarning o'zbek sportining yorqin namoyondalari – Rufat Risqiyev, Mixayil An, To'lagan Ishoqov, Birodar Abduraimov, Mirjalol Qosimov, Azamat Abduraimov, Muhammadqodir Abdullayev, O'tkirbek Haydarov, Bahodir Sultonov, Artur Grigoryan, Ruslan Chagayev, Akobir Qurbonov, Abdulla Tangriyev, Rustam Qosimjonov, Nodirbek Abdusattorov, Javoxir Sindarov, Bahodir Jalolov, Diyora Keldiyorovalarning faoliyati bilan yaqindan tanishishlari uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor berish zarur. Maktab ta'limida jahon va respublika miqyosida yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan sportchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish o'quvchilarga ulardan o'rnak olishlariga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish ham ularning kelgusida sport sohasida mamlakat obro'sini ko'tarishlari uchun asos bo'lishi mumkin. Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish jarayoniga yo'naltiruvchi dars mashg'uloti – jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tizimli shakli bo'lib, bir xil yoshdagi, bir xil kontingentdagi bolalarga belgilangan vaqt ichida dastur mavzularini o'qitish jarayoni tushuniladi. Bunday tizimli va aniq yosh chegarasi uchun mo'ljallangan mashg'ulotlar o'quvchilarning salomatligiga, sog'lom turmush tarzini shakllantirishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ularda sport turlariga, sportning ijtimoiy hayotga va salomatlikka ko'rsatadigan ta'siriga shaxsiy va intiluvchan munosabat shakllanadi. “Sog'lom turmush, faol optimal harakat aktivligi o'zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan. Umumiy va maxsus adabiyotlarning tahlili va mustaqilligimizdan keyingi davrda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning tahliliy natijalari mavzu bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazish lozimligini ko'rsatmoqda. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati tarkibidagi sog'lomlashtirish trenirovkalarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a'zosini sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi isbotlangan”⁹. Shunday ekan, jamiyatni, millatni sog'lomlashtirish orqali uni ulug'vor maqsdlar sari yo'naltirish imkonini beradi.

Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikka doir bilimlarini oshirish, ularda milliy g'urur, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalminallik, fuqarolik burchini his etishdek zarur fazilatlar tarbiyalash maqsad qilinadi. Mashqlarni bajarishdagi o'zaro yordam va o'yinda bir-ko'llash, berilgan

⁹Норкобилов М.Н., Мирходжаева З.С., Махмудов В.В. Жисмоний маданият ва спорт машгулотларида соғлом турмуш тарзини талабалар онгига сингдиришда педагогик ёндашувлар. Монография. Тошкент.: ТИҚХММИ, 2019, -Б. 6-7.

topshiriqlarni birgalikda bajarish, o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik hissini rivojlantiradi¹⁰. Jismoniy tarbiya shakllantiruvchi jamoaviylik, birdamlik hissi o'quvchilarning kasbiy faoliyatida ham asqotadi. Xulosa qilganda, sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikka doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish asosida milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirish, millatning ruhiy holatini barqarorlashtirish, ta'lim sifatiga erishish, o'quvchilarning matonati, irodasi va ma'naviy kuchini ijtimoiy taraqqiyotga yo'naltirish mumkin bo'ladi.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning metodik tizimi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni, modeli, texnologiyasi va tuzilmasi tadqiq etilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga yo'naltiruvchi dars mashg'ulotlari nazariy va amaliy qismlardan iborat bo'ladi va ular treninglar, qo'shimcha mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Shuningdek, bahs-munozara, savol-javob, jismoniy tadbirlar shaklida amalga oshirish ham samarali metodika hisoblanadi. Bunday tizim o'quvchilarning ruhiy barqarorligini shakllantirishga va jismoniy irodasini mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, “ta'lim-tarbiya berishning yuqoridagi texnologiyalaridan tashqari noan'anaviy usullari ham mavjud bo'lib, ularga musobaqa tanlov, muammoli model, mujassamlashgan hamkorlikda o'qitish, kompyuterli o'qitish, tabaqalashgan va faol o'qitish shaklidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etilmoqda”¹¹. Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish modeli maqsadli-motivatsion komponent, konseptual-maqsadli komponent, jarayonli kreativ komponent, integrativ-kognitiv komponent va natijaviy-baholash komponentlarini o'zida aks ettirdi.

Taklif etilayotgan model komponentlarining qisqacha tahlili quyidagicha ko'rinish oladi: Maqsadli-motivatsion komponent. Mazkur komponent amalga oshirish me'yoriy-huquqiy hujjatlar va sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq. Konseptual-maqsadli komponent. Mazkur komponent sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish tamoyillari, mazmuni, vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, diagnostik vositalarini aniqlashni taqozo etadi. Jarayonli kreativ komponent. Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning metodik (mazmuni, shakl, metod va vositalari) shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi. Integrativ-kognitiv komponent. Mazkur komponent sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishda yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ilmiy asoslari bo'lgan ilmiy, o'quv-uslubiy va tashkiliy asoslar ko'rsatib berilgan.

¹⁰Ivankov CH. T. Theoretical basis of methods of physical education. Moscow: Insan,2000. – P.352.

¹¹ Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. –Toshkent.: Fan va texnologiya. 2008. –B. 105.



1-rasm. Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish modeli

Natijaviy-baholash komponenti. Mazkur komponent qator vazifalarni hal etishga imkon beradi: sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish bilan bog'liqlikda qadriyatga yo'naltirilgan barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash tahlil etish va h.k. Bunda intellektual-kognitiv mezon - sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish haqidagi bilimlarning to'liqligini ko'rsatib bersa, amaliy mezon - sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishda reflektiv nuqtai nazarning shakllanganligini, emotsional - sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish bo'yicha shaxsiy pozitsiyaning shakllanganligini, motivatsion - sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishda motivatsion faollik va harakatning yuzaga kelishini baholash imkoniyati kelib chiqadi.

Maqsadli-motivatsion komponent sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish tizimining boshqa qismlari uchun yetakchi rol o'ynaydi va rivojlantiruvchi asos bo'lib hizmat qiladi. Mazkur komponent mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, me'yoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Mavjud imkoniyatlarni o'rganish asosida sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ishlarni maqbullashtirish lozimligini ko'rsatdi.

Tizimning maqsadga yo'nalganligi ma'lum natijalarga erishish bilan belgilanadi. Maqsadni aniqlashtirish ishlab chiqilayotgan tizim javob berishi lozim bo'lgan bir qator savollarga e'tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun mazkur jarayonning yakuniy natijasi aniq aks ettirilishi lozim.

Modelning maqsadi sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish tarzida aniqlashtirildi.

Ikkinchisi konseptual-maqsadli komponent bo'lib, u o'z ichiga sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning shart-sharoitlari, bu boradagi yondashuvlar, tayanch kompetensiyalar va tamoyillarni qamrab oladi. Shu ma'noda mazkur komponent modelning predmeti va amalga oshiruvchi vositalarini o'z ichiga olishi ma'lum bo'ladi.

Konseptual-maqsadli komponentda sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishning shart-sharoitlari sifatida tashkiliy, metodik, psixologik va pedagogik shart-sharoitlarga keltiriladi. Shu ma'noda konseptual-maqsadli komponentning pedagogik shart-sharoitlar sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish va tashkil etishni qamrab oladi.

Konseptual-maqsadli komponentda sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga doir yonashuvlar sifatida tizimli, fosilitativ, shaxsga yo'naltirilgan va reflektiv-aksiologik yondashuvlardan iborat.

Mamlakatimizda yoshlarni sport faoliyatiga yo'naltirishda "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada"dan iborat uch bosqichli sport musobaqalari

muhim ahamiyatga ega. Zero, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” sport o‘yinlarini o‘z ichiga olgan yaxlit tizimning amalga oshirilishi mamlakatimiz yoshlarining ommaviy sportga bosqichma-bosqich tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu tizimning birinchi bosqichi bo‘lgan “Umid nihollari” o‘quvchilarning ommaviy sportga yo‘naltirishda, jismoniy tarbiya va sportni o‘quvchilar faoliyatidagi o‘rnini sinovdan o‘tkazuvchi kichik bir olimpiadadir. Mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida bosqichma-bosqich o‘tkazilishi rejalashtirilgan “Umid nihollari” mezonlari, shartlari o‘quvchilarning jismoniy barkamollik ko‘rsatkichlarini aniqlovchi va unga tayyorlovchi me‘yorga aylandi. Pedagogik jarayonda ham o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish va jismoniy tarbiya asoslarini o‘rgatish orqali ularda sport bilan muntazam shug‘ullanish ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilinmoqda.

1-jadval

Sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari

Mezonlari	Ko‘rsatkichlari
Intellectual - kognitiv	- milliy identiklik asoslari, milliy identiklik tarbiyasining ahamiyati, samaradorligi, bugungi kundagi sport tarbiyasi asosida milliy identiklik tarbiyasi haqidagi bilimlarning to‘liqligi
Amaliy	- milliy identiklikka doir bilimlarni rivojlantiruvchi tayanch kompetensiyasiga egalik; - milliy identiklikka doir bilimlarni rivojlantirishda reflektiv nuqtai nazarining shakllanganligi
Emotsional	- sport va yurtimizni jahonga mashhur qilgan sportchilar haqidagi bilimlar asosida milliy identiklik tarbiyasiga emotsional munosabat; - sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish bo‘yicha shaxsiy pozitsiyaning shakllanganligi
Motivatsion	- sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga motivatsiyasining shakllanganligi; - sport faoliyati orqali o‘quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishda motivatsion faollik va harakatning yuzaga kelishi

Umumiy o‘rta ta‘limda o‘quv faoliyatini tashkil etishda sport o‘yinlari alohida ahamiyatga ega. Sport o‘yinlari va o‘yinlarga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechish mumkinligi pedagogik jihatdan to‘g‘ri belgilanishi lozim. Bunday o‘yinlarni tashkil etishni imkon qadar boshlang‘ich sinflardan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning ta‘kidlashicha, o‘quvchining o‘zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi¹². Shuningdek, o‘quvchilar mazkur bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida sinfdoshlari bilan do‘stona muloqot o‘rnata olmaydi.

Sport o‘yinlarida bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O‘yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo‘lib, uning dramatik san‘atga ham mosligidir. Bir tamondan o‘yin ishtirokchilari uni

¹² Садуллаев Б. Ўйинлар воситасида ўқувчиларда дўстона муносабатларга асосланган ижтимоий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш тизими//. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд.: СамДУ. 2019. –Б. 11.

amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarilar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elimlariidan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Jismoniy tarbiya darslarida quyidagi asosiy guruh vazifalarini ajratish mumkin:

1. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash orqali salomatlikni mustahkamlash.

2. Jamoada tarbiyaviy malakalarni ruhiy tarzda tarbiyalash.

3. Jamoada tarbiya mashqlarini bajarishda ko'nikma va malakalar hosil bo'lishi hamda ularni takomillashtirish, yanada bilim olish vazifalarini hal etish.

4. Sport hakamlari instruktorlarni tayyorlashga qaratilgan ko'nikmalarni tayyorlashga qaratilgan ko'nikma va malakalarni oshirish va shu kabilar.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilar yoshiga binoan dars oldida vazifalarni qo'yishda uni har tomonlama aniqlashtiradi va bolalar tomonidan mashqlarni bajarilishini hamda o'zlashtirish darajasini tekshirish chorasini aniqlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'rgatish jarayonida tarbiyaviy vazifalar ham bajariladi. Shuning uchun pedagog o'zi uchun ko'proq tarbiyalashga hamda o'rgatishga yo'naltirilgan vazifalarni aniq tasavvur etish kerak. Dars vazifalarini tanlashda va qo'yishda o'quvchilarning oldingi darsda nimani va qanday o'zlashtirilganligi o'qituvchi uchun asos bo'ladi.

V-VII –sinflarda jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy vazifalar. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yoshiga mos ravishda bilim berish va o'quvchilar tomonidan ularni o'zlashtirish:

a) "Salomatlik testi" majmua me'yor talablariga tegishli bilimlarni bayon etish va o'quvchilar tomonidan ularni o'zlashtirish;

b) jismoniy tarbiya dasturi bo'yicha o'quvchilar bilimni chuqurlashtiradigan va boyitadigan bilimlarni bayon etish.

Hayotda zarur bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni mustahkamlash va takomillashtirish. Shu boisdan: a) "Salomatlik testi" majmua me'yorlarini topshirish sharoitlari va organizm funksional imkoniyatlar o'chish jarayonini mavjudligi asosida oldingi bosqichda ega bo'lgan harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish; b) dastlabki ixtisoslashgan tanlab olingan sport turlari bo'yicha va maktab jismoniy tarbiya dasturida ko'rilgan yangi harakat tajribalarini boyitish;

Gigiyenik malakalarni shakllantirish va mustahkamlash (ya'ni jamoat va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish).

2. Sog'lomlashtirish vazifalar. Bu jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama tarbiyalashga, salomatlikni mustahkamlashga, o'sib kelayotgan organizmni garmonik shakllanishiga ko'maklashadigan vazifalar:

1. Organizmni chiniqtirish. Jumladan: a) quyosh radiatsiyasi, tashqi muhit haroratining ta'siri, jismoniy charchash va boshqalarga qarshilik ko'rsata olish qobiliyatlarini oshirish.

2. Jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash, shuningdek, ayrim tezkor-kuch qobiliyatlarini tarbiyalashga ko'maklashish; a) aerob xarakterining chidamligi; b) "Salomatlik testi" majmua me'yorini topshirishiga qaratilgan ishchanligiga ega bo'lish.

3. Tarbiyaviy vazifalar. Bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyalaridan kelib chiquvchi vazifalardan, jumladan: a) irodaviy sifatlarni tarbiyalash; b) jismoniy tarbiya jamoatchisi sifatida jamoat faoliyatiga tayyorlash. Bu vazifalarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq va birdamlik jarayonida hal etiladi. Lekin har birini amalga oshirishda ularning usul va yo'llari mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan jismoniy tarbiya darslari o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, mazkur fanning namunaviy o'quv dasturi mazmunini asos qilgan holda o'qitish metodlarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun qo'llaniladigan o'qitish metodlari o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan umumiy va maxsus malakalarni hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Jumladan, "o'yinga oid yakkama-yakka jang", "qo'l jangi", "sharni oyog'ingda bos", "doiradan itarib chiqar", "zanjirni uzish", "chavandozlar" kabi faol va interfaol metodlarni qo'llash asosida tashkil etiladi:

Xulosa qilib aytganda, sport o'yinlari jarayonida o'quvchilar qanday ko'nikmalarni egallashlari lozimligini aniq belgilab berish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi: samarali raqobat va hamkorlik, muzokaralar olib borish, ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va yakunlash, ziddiyatli vaziyatlarni boshqarish, bosimlar vujudga kelgan vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va tartibga solish, jamoa doirasida samarali hamkorlik muhitini o'rnatish kabi ko'nikmalarni izchil egallab boradilar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirish samaradorligi**" deb nomlanadi. Mazkur bobda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni, metodikasi, natijalari va statistik tahlili keltirilgan.

Tajriba-sinov maydonlarida sport faoliyati orqali o'quvchilarda milliy identiklikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari 2022-2023, 2023-2024, 2024-2025 o'quv yillari uch bosqichda Sirdaryo, Farg'ona va Andijon viloyatlaridagi umumta'lim maktablarida 514 nafar 5-sinf o'quvchilari ishtirokida amalga oshirildi.

Matematik-statistik tahlillarni ishonchli va samarali tashkil etish uchun tajriba va nazorat guruhlari aniq ajratib olingan (2-jadvalga qarang). Har bir guruhda qatnashuvchi o'quvchilarning soni muvofiqlashtirildi. Sinov natijalari bosqichma-bosqich jamlab borildi va yakunda umumlashtirilib, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi, metodik tavsiyalar shakllantirilib, amaliyotga joriy etish uchun tavsiya qilindi.

